

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## JANGNOMA DOSTONLAR TABIATI

Ilhom SAYITQULOV,

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290854>

**Annotasiya.** Ushbu maqola o'zbek xalq dostonlari tasniflarida jangnoma dostonlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va xalq kitoblaridagi jangnomalar solishtirilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Maqolada ushbu asarlarning syujet tuzilishi, mavzuviy yo'nalishlari va tarixiy ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** epos, jangnoma dostonlar, tasnif, xalq kitoblari, qissa.

**Аннотация.** В данной статье анализируется место и значение военных дастанов в классификации узбекских народных эпосов. Также сравниваются военные хроники в устном народном творчестве и народных книгах, раскрываются их уникальные особенности. В статье уделяется внимание сюжетной структуре, тематическим направлениям и исторической значимости этих произведений.

**Ключевые слова:** эпос, военные дастаны, классификация, народные книги, сказание.

**Annotation.** This article analyzes the role and significance of war epics in the classification of Uzbek folk epics. It also compares war chronicles in oral folklore and folk books, highlighting their unique characteristics. The study focuses on the narrative structure, thematic directions, and historical importance of these works.

**Key words:** epic, war epics, classification, folk books, short story.

O'zbek folkloridagi epik turga mansub bo'lgan doston janri o'zining uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlari jarayonida janr tabiati va voqeilikni ifodalash jihatiga ko'ra turli xususiyat kasb etgan. Bu jihatlarni inobatga olgan holda folklorshunoslikda dostonlar tasnifiga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan tasniflarda o'zbek xalq dostonlarining “jangnoma” tipidagi asarlarga alohida o'rin ajratilganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, o'zbek xalq dostonlarini ilk bor tasnif qilgan V.Jirmunskiy hamda H.Zarifovlar dostonlarni:

- 1) botirlik eposi;
- 2) jangnomalar;
- 3) tarixiy mazmundagi dostonlar;
- 4) romanik dostonlar;
- 5) kelib chiqishi adabiy dostonlar;
- 6) yangi dostonlar kabi turlarga ajratganligini ko'ramiz [Жирмунский В. 1: 59-69]. Mazkur tasnif bu borada keyinchalik qilingan M.Saidov va T.Mirzayev tasniflariga asos bo'lgan. Xususan, M.Saidov tasnifida xalq dostonlari:

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

- 1) qahramonlik;
- 2) sof muhabbatni kuylovchi;
- 3) romanik;
- 4) jangnoma;
- 5) tarixiy turlarga ajratilgan [Саидов М. 4: 32].

Akademik To‘ra Mirzayev esa dostonlarni:

- 1) qahramonlik dostonlari;
- 2) jangnoma-dostonlar;
- 3) tarixiy dostonlar;
- 4) romanik dostonlar;
- 5) kitobiy dostonlar [Мирзаев Т. 3: 78] ga bo‘lib tasnif etgan.

Folklorshunos olim B.Sarimsoqov esa yuqoridagi tasniflardan farqli ravishda doston namunalarini:

- 1) qahramonlik;
- 2) romanik;
- 3) tarixiy dostonlarga bo‘lib [Саримсоқов Б. 5: 37-47], jangnoma asarlarni qahramonlik dostonlari guruhida ko‘rsatadi.

Yuqorida kuzatilgan tasniflarning deyarli barchasida (B.Sarimsoqovdan tashqari) xalq dostonlarining jangnoma turi alohida ajratilgan.

Akademik T.Mirzayev jangnoma dostonlarga: *“Jangu jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo‘shin va yakka shaxslarning jasoratlarini tasvirlovchi dostonlar turi jangnoma-dostonlar deb yuritiladi”*, - deya ta’rif beradi. Shuningdek, jangnoma dostonlarning qahramonlik dostonlari ta’sirida shakllanganini ta’kidlab, “qahramonlik dostonlarida bosh qahramon faoliyati yakkama-yakka olishuvlarda, bahodirlik shartlarini bajarishda namoyon bo‘lsa, jangnomalarda turli-tuman xarakterdagi urush epizodlarida” namoyon bo‘lishi bilan farqlanishini aytib o‘tadi.

B.Sarimsoqov jangnoma asarlar xususida fikr bildirar ekan, mavjud ta’riflardan farqli ravishda, “bu xildagi dostonlar o‘zlarida, bir tomondan, qahramonlik dostonlariga, ikkinchi tomondan, romanik eposga xos xususiyatlarni mujassamlashtirgani va bu hissada ikkinchi tomonning ulushi yetakchilik qilishini nazarda tutib, ularni romanik eposning bir xili sifatida olib qarash lozim”ligini [Саримсоқов Б. 5: 38] ta’kidlaydi.

“O‘zbek folklorining epik janrlari” kitobida jangnoma asarlarning vujudga kelishida hukmron tabaqa islom dinini harbiy kuch bilan yoygan shaxslarni xalq

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

orasida targ‘ib qilish maqsadida jangnoma formasidan foydalanganligi, natijada “Jangnomai Abu Muslim”, “Jangnomai Sayyid Battoli Roziy”, “Jangnomai Amir Hamza” kabi shaxslarning nomi bilan bog‘liq jangnomalar yuzaga kelganligi aytib o‘tiladi [Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. 6: 17].

Shuningdek, jangnoma tipidagi asarlarga O‘rta Osiyoda keng tarqalgan Firdavsiyning “Shohnoma” asari hamda “Jangnomai Jamshid”, “Qahramoni Qotil” va “Ho‘shang” kabi asarlar kiritilgan. O‘zbek baxshilari repertuarida esa bu tipdagi dostonlarning nihoyatda kamligi, mavjudlarida “dushmanga qarshi kurashda mardlik va jasorat ko‘rsatish, ona yer butunligi uchun kurash, el-elatlar birligi, vatanparvarlik va do‘stlik kabi olijanob g‘oyalar kuylangan”ligi [Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. 6: 17] haqida fikr yuritiladi.

Xalq dostonlari va xalq kitoblari turkumidagi jangnoma qissalar o‘zbek xalq dostonlaridagi jangnoma dostonlarga ko‘p jihatdan uyg‘un kelishini ta’kidlash lozim.

Vatanparvarlik tuyg‘ulari va ona yurt sog‘inchi bilan yo‘g‘rilgan “Yusufbek va Ahmadbek” jangnomasini tadqiq qilgan olim R.Jumaniyozov “o‘zbek xalq kitoblarining jangnoma doston ko‘rinishidagi turlari va ularni ilmiy-tarixiy-adabiy yo‘sinda nazardan o‘tkazish shu paytgacha tadqiqot mavzusi bo‘lmaganligi” [Жуманиёзов 1981: 17]ni ta’kidlab o‘tadi, lekin tadqiqotchi dostonning jangnoma sifatidagi xususiyatlarini tahlil etmagan. Bu doston xususida V.M.Jirmunskiy, X.T.Zarifovlar “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” kitobining “Yusuf va Ahmad” jangnoma qissasi” nomli qismida to‘xtalib o‘tgan [Жирмунский В. 1: 112-121]. O‘zbek folklorshunosligida xalq kitoblarining jangnoma turiga doir tadqiqotlar ozchilikni tashkil etadi. Mavjud tadqiqotlarda ham bevosita asar tahliliga urg‘u qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Xalq kitoblari va o‘zbek baxshilari repertuarida jangnomalarning kamligiga urug‘, qabila yoki xalqning mustaqilligi uchun olib borilgan janglarni tasvirlovchi qadimgi jangnomalar zamonlar o‘tishi bilan turli sabablarga ko‘ra epik repertuardan tushib qolganligi sabab qilib ko‘rsatiladi.

Xalq kitoblariga mansub jangnoma tipidagi asarlari mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari, qahramon evolyutsiyasi, makon va zamon munosabatlari jihatidan quyidagicha xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

“Xalq kitoblari”dagi jangnoma qissalarda tasvirlanayotgan voqelik va qahramonlarning tarixiy asosi mavjud bo‘ladi (Abu Muslim, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar).

Jangnoma qissalarda real tarixiy shaxs obrazi xalq tomonidan ideal obrazga

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

aylantiriladi.

Jangnomada qahramon janglarda yengilmas hisoblanadi. Unga qiyin vaziyatlarda homiy-eranlar yordamga keladi.

Jangnoma asarlarda qahramon hayoti evolyutsion tarzda tasvirlanadi.

Asardagi voqealiklar jangga bo‘ysundiriladi, ya’ni bunda qahramon umrining katta qismi jang maydonlarida kechadi. Qahramon hayoti bilan bog‘liq boshqa munosabatlar ham mana shu planda tasvirlanadi.

“Sohibqironlik” tizimi jangnoma dostonlarning mumtoz namunalari uchun bosh mezonlardan biri sanaladi.

Jangnoma qissa bo‘lgani sababli asardagi asosiy voqealar bayoni va qahramonlar tasviri nasrda berilib, jang sahnalari saj’da ifodalanadi.

Jangnoma qissalar an’anaviy boshlama, asosiy qism va yakunlamalardan tashkil topadi.

Voqealar an’anaviy birikma iboralar, tasviriy vositalar, qolip so‘z va birikmalar vositasida yagona uslubga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi xususiyatlarning ayrimlari xalq jangnoma dostonlariga ham xosdir. Bundan esa xalq dostonlari va xalq kitoblariga mansub jangnomalar o‘xshash va farqli ekanligi anglashiladi. Bu jihatlarga quyidagi qiyoslash orqali amin bo‘lamiz:

Xalq dostonlaridagi jangnomalar	Xalq kitoblaridagi jangnomalar	O‘xshash, farqli
Jangu jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo‘shin va yakkashaxslarning jasoratlari tasvirlanadi.	Jangu jadallar, tarixiy urushlar va bunday jang epizodlarida qo‘shin va yakka shaxslarning jasoratlari tasvirlanadi.	o‘xshash
Jangnomalarda dushmanga qarshi kurashda mardlik va jasorat ko‘rsatish, ona yer daxlsizligi uchun kurash, el-elatlar birligi, vatanparvarlik va do‘stlik kabi olijanob g‘oyalar kuylanadi.	Jangnomalarda dushmanga qarshi kurashda mardlik va jasorat ko‘rsatish, ona yer daxlsizligi uchun kurash, el-elatlar birligi, vatanparvarlik va do‘stlik kabi olijanob g‘oyalar kuylanadi.	o‘xshash
Jangnomada tasvirlanayotgan voqelik va qahramonlarning tarixiy asosi mavjud bo‘lmaydi.	Jangnomada tasvirlanayotgan voqelik va qahramonlarning tarixiy asosi mavjud bo‘ladi.	farqli
Jangnoma dostonlarda bosh qahramon xalq badiiy tafakkuri mahsuli hisoblanadi.	Jangnoma qissalarda real tarixiy shaxs obrazi xalq tomonidan ideal badiiy obrazga aylantiriladi.	farqli

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Jangnomada qahramon yengilmas hisoblanadi. Unga qiyin vaziyatlarda homiy-eranlar yordamga keladi.	Jangnomada qahramon yengilmas hisoblanadi. Unga qiyin vaziyatlarda homiy-eranlar yordamga keladi.	o‘xshash
Jangnoma dostonlarda qahramon hayoti evolyutsion tarzda tasvirlanadi.	Jangnoma xalq kitoblarida qahramon hayoti evolyutsion tarzda tasvirlanadi.	o‘xshash
Asardagi voqeiklar jangga bo‘ysundiriladi. Bunda qahramon umrining katta qismi jang maydonlarida kechadi.	Asardagi voqeiklar jangga bo‘ysundiriladi. Bunda qahramon umrining katta qismi jang maydonlarida kechadi.	o‘xshash
Jangnoma dostonlarda voqelik, asosan, nazmda beriladi.	Jangnoma qissalarda voqelik, asosan, nasrda beriladi.	farqli

Demak, jangnoma doston (qissa)larda jangu jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo‘shin va yakka shaxslarning jasoratlari tasviri orqali qahramonlarning dushmanga qarshi kurashda mardlik va jasorat ko‘rsatishi, ona yer daxlsizligi uchun kurashi, el-elatlar birligi, vatanparvarlik va do‘stlik kabi olijanob g‘oyalar kuylanadi. Shuningdek, bunday asarlarda qahramon yengilmas hisoblanadi. Unga qiyin vaziyatlarda homiy-eranlar yordamga keladi. Asardagi voqeiklar jangga bo‘ysundirilib, qahramon umrining katta qismi jang maydonlarida kechadi. Bu jarayonlarda qahramon hayoti evolyutsion tarzda tasvirlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - М.: Государственное издательство художественной литературы, 1947. – 520 с.
2. Жуманиёзов Р. Донг қозонган дoston. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 72 б.
3. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг репертуари. – Тошкент: Ёзувчи, 1979. – 152 б.
4. Саидов М. Ўзбек халқ дostonчилигида бадий маҳорат масалалари. - Тошкент, 1969. – 264 б.
5. Саримсоқов Б. Халқ дostonлари таснифи ва оралиқ шакллар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. 3-сон. – Б. 38-45.
6. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981.
7. Ўзбек халқ ижодиёти бўйича тадқиқотлар. 7-китоб. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981